ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 2.1-2

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.05.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.05.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.05.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

KURBANOVA MUHABBAT MATYAKUBOVNA,
SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI
Deyksis va anafora tushunchalari: o‘xshash va farqliliklar 7

JUMANYAZOVA MUHABBAT XUSINOVNA
Xorazm vohasi folklori tilidagi muarrablar 10

KURBANAZAROVA NARGIS SHODIYEVNA
Qo‘ng‘irot etnonimining fonetik-fonologik
variantlarida semantik tafovut 13

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
O‘zbek adabiy tilida paremiyalarga xos xususiyatlar 18

O‘RAZOVA IQBOL ABDIKARIMOVNA
«Ko‘ngil» leksemasi va uning «tafakkur»
sememasidan shakllangan frazemalar tahlili 22

XOLOVA MUYASSAR ABDULHAKIMOVNA,
BOZOROVA ELINOR,
XOLIQULOVA ZARNIGOR
Alisher Navoiy korpusi tadqiqiga doir ayrim qaydlar 26

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
Individuallik – yozuvchi lisoniy shaxsini belgilashda muhim ko‘rsatkich
(J.Jovliyev asarlari misolida) 29

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Discourse and the formation of scientific meaning 32

IBODULLAYEVA KUNDUZ RUSTAM QIZI
Ilmiy diskursda janrlar masalasi va uning xususiyatlari 36

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Ingliz va o‘zbek tillaridagi kiyim va mato komponentli frazeologik
billiklarning konnotativ va denotativ ma’nolari 41

МИРЗАЕВА ШАХЛО РИЗАЕВНА,
РУЗИЕВА МУШТАРИ ХУСНИДДИН КИЗИ
Отличие синонимов от многозначных
слов в русском и узбкском языках 43

ХАЙДАРОВА ГУЛБАХОР ЮЛДАШЕВНА
Трансформация глагольной основы в прилагательное
с помощью суффиксов 47

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Компонентный анализ активно употребляемых
единиц современной русской и узбекской лексики 51

ЙУЛДОШЕВА САОДАТЖОН ШУХРАТ КИЗИ
Формы обращения и речевого этикета в русскоязычных
и узбекоязычных онлайн-коммуникациях 55

МУНДАРИЖА

SOBIROVA GULSHANA FAXRIDDINOVNA
O‘zbek tili haqoratli so‘zlar izohli lug‘atini tuzish tamoyillari 61

YULBARSOV OCHILBEK OBIDJON O‘G‘LI
Neologizmlarning korpus tahlili yordamida tadqiq etilishi va
ularning konkordanslari asosida ma’lumotlar
bazasini shakllantirish tamoyillari 66

OQILA ABDULLAYEVA XOLMO‘MINOVNA
Turkiy tilshunoslikda dependency parsingga oid tadqiqotlar 72

HILOLAXON SHUHRATXON QIZI PO‘LATXONOVA
Neurolinguistic analysis of public speeches
on persuasive strategies in political rhetoric..... 78

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA
O‘zbek antroponimikasida ism tanlash masalalari..... 81

ADABIYOTSHUNOSLIK

УМУРЗОҚОВ БАҲРИДДИН САФАРОВИЧ
Алий Сафий Ҳиравий қаламига мансуб янги топилмалар 84

XALILOVA SHOHISTA MUHAMMADI QIZI
Rey Bredberining asarlari va o‘zbek adabiyotida
anti-utopik mavzularning qiyosiy tahlili 89

ABDIVALIYEV OBITJON ODILJONOVICH
Abdulla Qahhorning «Boshsiz odam»
hikoyasida huquqsiz ayol timsoli 92

QARAQULOV AZIZBEK
Inson va tabiat muammosining o‘rganilishi..... 94

TA’LIM

SHAMSIDDINOVA DILAFUZ FAXRIDDINOVA
The efficacy of contextual learning through extensive reading
and listening in enhancing esl speaking vocabulary 99

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 3-4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ILMIY DISKURSDA JANRLAR MASALASI VA UNING XUSUSIYATLARI

Ibodullayeva Kunduz Rustam qizi,
O'zbekiston Milliy universiteti
kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasi o'qituvchisi

Til tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson aloqa aralashuvining muhim vositasi hisoblanadi va nutq ko'rinishida yuzaga chiqadi. Nutq yaratilish jarayoni turli soha tadqiqotchilarni hamisha qiziqtirib kelgan dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblangan. XX asrning so'ngi choragidan jahon tilshunosligida lisoniy faoliyat mahsuli bo'lgan har qanday nutqiy tuzilmani uni yaratuvchi va idrok etuvchi shaxs-muallif va retsipiyent muloqoti nuqtayi nazaridan tadqiq etishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Nutqiy tuzilmani muloqot jarayoni sifatida o'rganish diskurs tushunchasining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi[1]. Diskurs atamasi o'tgan asrning 50-yillarida amerikalik tilshunos Zellig Xarris tomonidan birinchi marta qo'llanilgan. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida ushbu atamani markaziy masalalardan biri sifatida ko'plab tadqiqotlarda uchratamiz. Diskurs atamasi bilan bog'liq fikrlar xilma-xil bo'lib, yechilishi lozim bo'lgan masalalar yetarlicha. Xususan ilmiy diskurs, uning xususiyatlari va janrlar masalasi, ilmiy diskursning pragmatik, kognitiv tahlili masalalari shular jumlasidandir.

Diskurs nutq yaratish va uni idrok etish jarayoni bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Ushbu jarayon nutq yaratuvchi-muallif va uni qabul qiluvchi-retsipiyent bilan uzviy aloqador bo'ladi. Axborotlarni uzatish va saqlashning ijtimoiy vositasi bo'lgan nutqning har bir turi o'ziga xos janrlarga ega. Nutqiy janrlar inson faoliyati bilan bog'liq ravishda vujudga keladi. Dunyo tilshunosligida nutqiy janrlar nazariyasi tobora ommalashib borayotgan o'ziga xos ilmiy yo'nalish bo'lib, bu nazariyaning markaziy masalasi til tizimida nutqiy janrlarning differensial belgilarini aniqlashdir. Hozirgi globallashuv sharoitida kommunikatsiya va madaniyatlararo muloqotning tezlashuvi nutqiy janrlarni o'rganishga e'tiborning kuchayishiga sabab bo'lmoqda[2].

Aytish joizki, ishimizdan maqsad ilmiy diskursda janrlar masalasini tadqiq qilish bo'lganligi uchun birinchi navbatda ilmiy diskurs tushunchasi va uning xususiyatlarini aniqlab olish kerak.

Ilmiy diskurs bu ilmiy jamoa doirasida yaratiladigan va qabul qilinadigan, ma'lum qoidalarga asoslangan nutq faoliyatining o'ziga xos shaklidir. Ilmiy diskurs quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- bayonotning aniq va mantiqiyligi;
- obyektivlik va dalillilik;
- terminologiyadan foydalanish;
- intertekstualik (avvalgi tadqiqotlarga tayanish);
- professional auditoriyaga yo'naltirilganlik.

V.I. Karasik o'zining "Til doirasi: shaxs, tushunchalar, diskurs" nomli monografiyasida ilmiy diskursning o'ziga xos xususiyatlarini uning asosiy tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda ko'rib chiqishni taklif etadi[3]. Bu tarkibiy qismlarni quyidagi jadvalda tizmli tarzda keltirishga harakat qildik. Ushbu jadval Karasikning ilmiy diskursni tizimli ravishda tahlil qilish yondashuvini aks ettiradi.

Tarkibiy qism	Tavsifi
Diskurs ishtirokchilari	Ilmiy diskursda ishtirokchilar – bu olimlar, tadqiqotchilar, talabalar va boshqa ilmiy jamoa a'zolari bo'lib, ular o'zaro muloqot orqali bilim almashadilar.
Xronotop (vaqt-makon) va maqsad	Diskurs ma'lum bir vaqt va makonda sodir bo'ladi va aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi, masalan, ilmiy konferensiya yoki seminarlar.
Qadriyatlar	Ilmiy diskursda obyektivlik, haqiqatga intilish, dalillarga asoslanish kabi qadriyatlar muhim o'rin tutadi.

[1] Худойберганова Д. Бадиий матннинг антропоцентрик тадқиқи. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2010. – Б. 29-31.

[2] https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/447/1889

[3] Карасик В.И. Языковый круг: личность, концепты, дискурс. Монография. – М.: Гнозис, 2004. – С. 390 .

Strategiyalar	Ma’lumotni taqdim etish, dalillarni keltirish, savollarga javob berish kabi strategiyalar diskursning samaradorligini ta’minlaydi.
Mavzu yo‘nalishi	Diskursning asosiy mavzusi yoki yo‘nalishi aniqlanadi, bu esa muloqotning maqsadini belgilaydi.
Turlar va janrlar	Ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, konferensiya ma’ruzalari kabi turli janrlar ilmiy diskursning turlarini tashkil etadi.
Pretsedent matnlar	Oldingi ilmiy ishlar, maqolalar va tadqiqotlar yangi diskurslar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.
Diskursiv formulalar	“Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki…”, “Ushbu maqolada biz ko’rib chiqamiz…”, “Bizning fikrimizcha…”, “Shuni alohida ta’kidlash lozim…” kabi iboralar ilmiy diskursda tez-tez qo‘llaniladi.

1-jadval. **Karasik yondashuviga asoslangan ilmiy diskursning asosiy komponentlari**

Ilmiy diskursning ishtirokchilari-bu olimlardir, ular ayni paytda maxsus ilmiy ijtimoiy institut vakillari hisoblanadi. Shu bilan birga, ilmiy diskursda muloqot ishtirokchilari o‘rtasida tenglik darajasi yuqori bo‘lib, “haqiqatga yagona egalik” degan tushuncha mavjud emas. Har bir tadqiqotchi o‘z ishlariga ham, boshqalarning fikrlariga ham tanqidiy yondashadi. L.A. Axtaeva ilmiy diskursni o‘ziga xos diskursiv faoliyat turi sifatida ko‘rib chiqib, undagi matnlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir “yuqori darajadagi umumlashtirilgan konseptosfera” asosida shakllanishini, bu esa o‘z navbatida *interdiskursivlik* va *intertekstuallik* fenomenlariga olib kelishini ta’kidlaydi. Ya’ni, oldingi (pretsedent) matnlar tizim shakllanishi uchun muhim belgidir[1]. Bu esa ilmiy diskursga xos bo‘lgan interdiskursivlik va intertekstuallik kabi hodisalardan dalolat beradi.

Ilmiy diskursning markazida turli janr modellari asosida tashkil etilgan matnlar turadi, har bir model ilmiy kommunikatsiya doirasida o‘ziga xos vazifani bajaradi. Shu bois ilmiy diskursning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu janrlarning xilma-xilligidir. Janrlar ilmiy muloqot samaradorligini ta’minlaydigan strukturaviy va funksional birliklar sifatida xizmat qiladi. Biroq, raqamli texnologiyalar, fanlararo yondashuvlarning rivojlanishi va ilmiy muhitdagi o‘zgarishlar sababli ilmiy diskurs janrlarni aniqlash va tasniflash muammosi dolzarb bo‘lib bormoqda. Janrlar har bir matnning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun asos bo‘ladigan me’yorlar yoki qoidalar to‘plamidir. Janr matn yaratish qoidalari to‘plami sifatida qaraladi, ularga rioya qilinganda tayyor matn zarur xususiyatlarga ega bo‘ladi. Chuqur o‘rganilganda, deyarli har bir matn bir nechta janrga tegishli bo‘ladi. “Janr” tushunchasining ko‘plab ta’riflari mavjud, ammo ularning barchasi bir qator matnlarni birlashtiruvchi umumiy xususiyatlar g‘oyasi atrofida uyushgan bo‘ladi.

Lingvistika va diskurs tahlilida janr tushunchasi - bu muayyan kommunikativ vazifalarni, tuzilma va til vositalarini o‘z ichiga olgan barqaror matn shakli deb qaraladi va muloqotning tuzilishi, maqsadlari va auditoriyasini belgilovchi muhim komponent hisoblanadi. Ilmiy diskursda janrlar nafaqat formal belgilar (hajm, tuzilma) asosida, balki kommunikativ maqsad (natijalarni yetkazish, gipotezalarni muhokama qilish, tanqid qilish va hokazo) asosida ham belgilanadi. Ular insonlarga ilmiy ma’lumotlarni samarali yetkazish, xulosalarni asoslash va hamkasblar bilan aloqalarni o‘rnatish imkonini beradi. Ilmiy diskursda bir nechta asosiy janrlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularning har biri o‘ziga xos xususiyat va funktsiyalarga ega. Masalan, ilmiy maqola odatda bir necha bo‘limdan iborat bo‘lib, yangi tadqiqotlar, eksperimental natijalar, nazariy asoslar va mavjud ishlarning tanqidiy, statistik tahlilini nashr etishga xizmat qiladi. U odatda quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi: kirish, adabiyotlar tahlilini ko‘rib chiqish, tadqiqot usullari, natijalar, muhokama va xulosa.

Ilmiy diskurs janrlarini tasniflash bo‘yicha turli yondashuvlar mavjud. Ilmiy nutq janrlarini ko‘rib chiqishda birlamchi (monografiya, dissertatsiya, maqola) va ikkilamchi (avtoreferat, annotatsiya, tezislar) turlari ajratiladi[2]. Birlamchi ilmiy matnlar yangi ilmiy bilimlarni, kashfiyotlar va tadqiqotlarning eng so‘nggi natijalarini o‘z ichiga oladi, ular birinchi marta tanishish uchun taqdim etiladi. Ikkilamchi ilmiy matnlar esa yangi yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni tarqatish vositasi sifatida xizmat qiladi va eng avvalo, kommunikativ-vositachilik vazifasini bajaradi.

Shu nuqtayi nazardan, ilmiy diskursning yozma shaklini quyidagi janrlar bilan ifodalash lozim:

- dissertatsiya;

[1] Ахтаева Л.А. Научный дискурс как специфическая разновидность дискурсивной деятельности / Молодой ученый. – 2010. – №7. – С. 144– 150.

[2] Аликаев Р.С. Язык науки в парадигме современной лингвистики. Нальчик. – ЭльФа, 1999. – С 318.

- monografiya;
- ilmiy maqola;
- tezislar;
- avtorefarat;
- konspekt;
- taqriz;
- darslik;
- o‘quv qo‘llanma.

Og‘zaki ilmiy diskursning janrlari sifatida quyidagilar tasniflanadi:

- seminarlar;
- konferensiya ma’ruzalari;
- ilmiy kengashda nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoyalari.

Ba’zi tadqiqotchilar og‘zaki ilmiy diskurs janrlarini quyidagicha tasniflaydi:

- monologik: ma’ruza, ilmiy axborot, seminar mashg‘ulotida so‘zga chiqish, og‘zaki taqriz yoki og‘zaki fikr-mulohaza, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarini himoya qilish;
- dialogik: ilmiy munozara va ilmiy suhbat kabi[1].

Bugungi kunda milliy va xorijiy tilshunoslikda ko‘plab ilmiy diskurs va uning janrlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar qilingan bo‘lib, har bir tadqiqot asosida muammoga muayyan yondashuv va muallifning nuqtayi nazari yotadi. Mavjud yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramay ilmiy diskursning barcha tadqiqotlari zamonaviy akademik muhitda ilmiy muloqot va ilmiy bilimni uzatish diskurs orqali amalga oshiriladi. Ilmiy diskursning asosini ilmiy matnlarning eng keng tarqalgan turlaridan biri- ilmiy maqolalar tashkil etadi. Ilmiy maqolada ilmiy tadqiqot natijalari jamoatchilikka taqdim etiladi. Ilmiy maqola albatta yangi bilim elementlarini o‘z ichiga oladi, bu esa uning ahamiyatini belgilaydi. Ilmiy maqolada yangi obyekt, hodisa yoki jarayon haqidagi ma’lumotlar, nazariy yoki amaliy tadqiqotlarga asoslangan ma’lum hodisa va jarayonlarning yangi izohlari, talqinlari, tadqiqotlarda qo‘llaniladigan yangi yondashuvlar va usullar aks etgan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ilmiy maqola allaqachon ma’lum bo‘lgan ilmiy nazariyalarni, jarayon, hodisa yoki obyekt haqidagi ma’lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirishni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Bu asosda tadqiqotchilar tomonidan yangi xulosalar va bashoratlar qilinadi.

Ko‘plab olimlar ilmiy maqola janrini ilmiy diskursning prototipi sifatida baholaydilar. Turli ilmiy nashrlarga kiritilgan ilmiy maqolalarning aksariyati o‘ziga xos janr modelini, ya’ni janr qonuniyatini shakllantiradi. Bu qonuniyatga muvofiq keyingi ilmiy maqolalar tuziladi. Ilmiy maqola “ilmiy diskurs yadrosi” deb ham ataladi, chunki unda ilmiy diskursning barcha toifaviy xususiyatlari o‘z aksini topadi[2]. Maqolada bitta aniq ilmiy muammoni hal qilish yo‘llari yoki yondashuvlari ko‘rsatiladi. Maqola muallifi ushbu muammo bilan qiziquvchilar bilan munozara va muloqot olib boradi. Shu o‘rinda Ye.V. Mixaylovaning quyidagi ta’rifini alohida takidlashni joiz deb bildik: ilmiy maqola - bu ilmiy diskursning birlamchi yozma janri bo‘lib, uning vazifasi bitta ilmiy muammoni qo‘yish va hal qilishdan iborat. U o‘rtacha hajmga, havolalar tizimiga va nashr ma’lumotlariga ega bo‘ladi[3]. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, ilmiy maqola janrini ilmiy diskursning eng asosiy ommabop janrlaridan biri deb hisoblaymiz. Maqolaning o‘rtacha hajmi haqida gapirganda, miqdoriy nuqtayi nazardan ilmiy maqola janri tezislar (kichik hajmli) va monografiya (katta hajmli) o‘rtasida oraliq o‘rinni egallaydi. Har qanday ilmiy maqolaning asosiy xususiyatlaridan biri - havolalar tizimidan foydalanishdir. Bu tizim mualliflik huquqlarini hurmat qilish, plagiatning oldini olish va ma’lumotlarning ilmiy dalilanganligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, ilmiy maqolalar turli maqsadlar va uslublarga ega bo‘lib, ularni tasniflashda xalqaro ilmiy nashrlarda qabul qilingan mezonlarga asoslanish muhimdir. Xalqaro ilmiy nashrlarni o‘rganish jarayonida, jumladan, rus va ingliz ilmiy adabiyotlarida ilmiy maqolalarni tasniflash uchun quyidagi asosiy mezonlar hisobga olishining guvohi bo‘ldik.

1	Ilmiy faoliyat sohasi bo‘yicha	lingvistika, astronomiya, fizika, psixologiya sohasiga oid maqolasi va hokazo.
2	Tadqiqotchi oldida turgan kommunikativ vazifasi bo‘yicha	- ilmiy-eksperimental (tadqiqot natijalari va tajriba asosida yozilgan) maqola; - ilmiy-ommabop (keng ommaga mo‘ljallangan, ilmiy mavzularni soddalashtirib tushuntiruvchi) maqola; - ilmiy-publitsistik (lmiy mavzularni ijtimoiy kontekstda yorituvchi) maqola; - obzor (mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qiluvchi) maqola.

[1] http://www.nauteh-journal.ru/files/ae1ffc1c-237c-44c3-9ac6-5f64ac70a0f4

[2] Григорьева В.С. Дискурс как элемент коммуникативного процесса: прагмалингвистический и Когнитив-ный аспекты: монография/ В.С.Григорьева.–Тамбов: Изд-во Тамб.гос.техн. ун-та, 2007. – С 288.

[3] Михайлова Е. В. Интертекстуальность в научном дискурсе: на материале статей: Дисс…. канд.филол.наук. -Волгоград, 1999. – С. 205.

3	Ilmiy muammo(vazifasi) bo‘yicha	- Nazariy (nazariy tahlil va konseptual asoslarni o‘rganishga qaratilgan) maqola; - Amaliy (tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan) maqola; - Ilmiy-uslubiy (tadqiqot metodologiyasi, usullari va vositalarini tavsiflovchi) maqola.

2-jadval. **Rus va ingliz adabiyotlarida ilmiy maqola turlarining tasniflanishi**

Ushbu tasniflash mezolari ilmiy maqolalarning turli jihatlarini aniqlashga yordam beradi va mualliflar uchun maqolani yozish va nashrga tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy maqolaning tuzilishida diskursiv elementlar, diskursiv munosabatlar, diskursiv elementlarning tarkibiy qismlari va semantik munosabatlar katta ahamiyatga ega. Diskursiv elementlar umumiy diskursga nisbatan bajaradigan kommunikativ vazifalari nuqtayi nazaridan ajratib ko‘rsatiladi. Bular quyidagilar: vaziyat (situation), muammo (problem), yechim (solution), baholash (evaluation).

Diskursiv munosabatlar deganda, diskurs elementlari o‘rtasida yuzaga keladigan aloqalar tushuniladi. Muhokama qilinayotgan matn turida ular uchta: vaziyat-muammo, muammo-yechim, yechim-baholash tarzida aloqador bo‘ladi. Ushbu tuzilma ilmiy matnlarning mantiqiy va izchil bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, maqolada oldin mavjud vaziyat (holat) tasvirlanadi, keyin muammo aniqlanadi, so‘ng yechim taklif qilinadi va natijalar baholanadi.

Diskursiv elementlar o‘z navbatida, quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘linadi: ishning maqsadi bilan tanishish, metodologiyani tavsiflash, natijalarning qisqacha bayoni, tadqiqot sohasini belgilash, oldingi tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish, umumlashtirish, vazifalarni, usullarni, harakatlarni aniqlash, foydalaniladigan asbob-uskunalar va qo‘llaniladigan materiallarni tavsiflash va hokazo. Bularning barchasi ma’lum usullar orqali amalga oshiriladi[1].

Semantik munosabatlar deganda diskurs elementlari ichida va ular o‘rtasidagi “sabab-natija” (reason-result), “shart-oqibat” (condition-consequence) kabi tarkibiy qismlar o‘rtasidagi aloqalar tushuniladi. B. Peltrejning ta’kidlashicha, semantik munosabatlar faqat grammatik kategoriyalarga asoslangan mantiqiy-semantik aloqalar emas, balki semantik-pragmatik munosabatlardir. Ular matn, kontekst va ensiklopedik bilimlarga tayanadi[2]. Bu esa matnni to‘g‘ri talqin qilish uchun faqat til birliklarini emas, balki ularning qanday vaziyatda, qanday maqsad bilan va qanday auditoriyaga mo‘ljallanganligini ham hisobga olish zarurligini anglatadi.

Ilmiy maqolalarda bunday munosabatlarni tizimga solish maqsadida IMRAD (Introduction, Methods, Results, and Discussion) strukturasidan keng foydalaniladi. IMRAD (Introduction, Methods, Results, and Discussion) tuzilmasi ilmiy maqolalarning standart tuzilmasi bo‘lib, u maqolaning mantiqiy va tizimli bo‘lishini ta’minlaydi. Bu tuzilma orqali o‘quvchilar tadqiqotning maqsadi, qo‘llanilgan usullar, olingan natijalar va ularning tahlili haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladilar. IMRAD tuzilmasi ilmiy maqolalarning xalqaro standartlarga mos bo‘lishi uchun xizmat qiladi.

Ilmiy maqolalarda IMRAD (Introduction, Methods, Results, and Discussion) strukturasining har bir bo‘limida keltiriladigan ma’lumotlar turli tilga qarab farqlanishi mumkin. Quyida o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi ilmiy maqolalarda IMRAD strukturasining har bir bo‘limida keltiriladigan ma’lumotlar haqida qiyosiy jadval keltirilgan.

Bo‘lim	O‘zbek tilida keltiriladigan ma’lumotlar	Rus tilida keltiriladigan ma’lumotlar	Ingliz tilida keltiriladigan ma’lumotlar
Kirish	Mavzuning dolzarbligi, ilmiy ahamiyati,o‘rganila-yotgan masalaning qisqacha tavsifi, oldingi tadqiqotlar va mavjud bo‘shliqlarni aniqlash, tadqiqotning maqsadi va vazifalari.	Hozirgi ishlarni tadqiq qilish, ilmiy ahamiyati, o‘rganilayotgan muammoning qisqacha tavsifi, dastlabki tadqiqot va tekshirish natijalari, tadqiqotning maqsad va vazifalari.	Mavzuning dolzarbligi, ilmiy ahamiyati, o‘rga-nilayotgan muammo-ning qisqacha tavsifi, ilgari olib borilgan tadqiqotlar va mavjud kamchiliklar, tadqiqot-ning maqsad va vazifalari.

[1] 3. Баскаков Ф. Я. Методология научного исследования: уч.пособие/ Ф. Я. Баскаков. – Киев: МАУП, 2004. – С. 216.

[2] https://www.researchgate.net/publication/248530594_Genre_frames_and_writing_in_research_settings_Brian_Paltridge_Amsterdam_Benjamins_1997_192_pp

Usullar	Tadqiqot usullari, tajriba o‘tkazish sharoitlari, foydalanilgan materiallar va asboblar, eksperimentlar yoki kuzatishlar metodologiyasi.	Tadqiqot usullari, eksperimentlar o‘tkazish shartlari, ishlatiladigan materiallar va jihozlar, tajribalar metodologiyasi yoki aniqligi.	Tadqiqot usullari, eksperimentlarni o‘tka-zish shartlari, qo‘llani-ladigan materiallar va jihozlar, eksperimentlar yoki kuzatishlar metodologiyasi.
Natijalar	Olingan natijalar, statistik tahlil, diagramma va jadval shaklida taqdim etilgan ma’lumotlar, natijalarni sharhlash.	Olingan natijalar, statistik tahlil, diagramma va jadval ko‘rinishidagi ma’lumotlar, natijalarni sharhlash.	Olingan natijalar, statistik tahlil, diagramma va jadvallar ko‘rinishida taqdim etilgan ma’lumotlar, natijalarni sharhlash.
Muhokama	Natijalarni tahlil qilish, boshqa tadqiqotlar bilan solishtirish, yangi xulosalar, ilmiy va amaliy ahamiyati, kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar.	Natijalarni tahlil qilish, boshqa tadqiqotlar bilan solishtirish, yangi natijalar, ilmiy va amaliy ahamiyati, kelgusidagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar.	Natijalarni tahlil qilish, boshqa tadqiqotlar bilan solishtirish, yangi topilmalar, ilmiy va amaliy ahamiyati, kelgusidagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar.

3-jadval. **O‘zbek, rus va ingliz tillaridagi ilmiy maqolalarda IMRAD strukturasining qiyosiy tahlili**

IMRAD strukturasining har bir bo‘limi o‘ziga xos maqsadga ega bo‘lib, ilmiy tadqiqotning turli jihatlarini yoritishda, ma’lumotlarning aniq va tartibli bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, janrlarning aniqligi va standartlashtirilganligi ilmiy muloqotning samaradorligini ta’minlaydi. Biroq, ba’zi hollarda janrlararo chegaralarning noaniqligi, turli fan sohalarida har xil yondashuvlarning mavjudligi bu samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu muammoni hal etish uchun ilmiy matnlarning tuzilishi va janr xususiyatlarini aniq belgilash, standartlashtirish zarur. Ilmiy diskursda janrlar masalasini hal etish, ilmiy maqolalarning tuzilmasini standartlashtirish ilmiy diskursning samaradorligini oshiradi, ilmiy bilimlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Rezyume. Ilmiy diskurs – bu ijtimoiy-madaniy kontekstda shakllanadigan, aniq kommunikativ maqsadga yo‘naltirilgan va nutqiy janrlar orqali ifodalanadigan murakkab til hodisasi hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi-ilmiy diskurs janrlarining xususiyatlarini o‘rganish, ularning funksiyalarini aniqlash, mavjud tasniflarni ko‘rib chiqish va janrlarning xilma-xilligi bilan bog‘liq asosiy muammolarni aniqlashdan iborat. Shuningdek, maqolada ilmiy janrlarning sintaktik, semantik va pragmatik jihatlari, ularning matn tuzilishiga ta’siri, adresatga yo‘naltirilganligi va ularning zamonaviy ilmiy kommunikatsiyadagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi.

Resume. Scientific discourse is a complex linguistic phenomenon that develops within a socio-cultural context, is directed toward a specific communicative purpose, and is expressed through various speech genres. The aim of this article is to examine the characteristics of scientific discourse genres, identify their functions, review existing classifications, and highlight the main issues related to genre diversity. Additionally, the article explores the syntactic, semantic, and pragmatic aspects of scientific genres, their impact on text structure, their orientation toward the addressee, and their role and significance in modern scientific communication.

Резюме. Научный дискурс представляет собой сложное языковое явление, формирующееся в социально-культурном контексте, направленное на достижение конкретной коммуникативной цели и выражающееся через речевые жанры. Цель данной статьи – изучить особенности жанров научного дискурса, определить их функции, рассмотреть существующие классификации и выявить основные проблемы, связанные с разнообразием жанров. Кроме того, в статье освещаются синтаксические, семантические и прагматические аспекты научных жанров, их влияние на структуру текста, ориентация на адресата, а также их роль и значение в современной научной коммуникации.